



QISHLOQ XO‘JALIGIDA MEHNAT (MARDIKORLAR) BOZORIDAGI ISHTIROKCHILARNI MINIMALLASHTIRISHNING ISTIQBOLDAGI PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI

Muallif: Murtazaev Akbarxon Olimovich ¹

Affiliyatsiya: TDIU Samarqand filiali, mustaqil tadqiqotchi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17579185>

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy ishda qishloq xo‘jaligi mehnat bozorida mardikorlikka chiqish ko‘lamini kamaytirish va bandlik darajasini oshirishga qaratilgan prognoz tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi mehnat resurslari balansi asosida 2030 yilgacha bo‘lgan davr uchun dinamik o‘zgarishlar statistik usullar, xususan “Probit” va trend modellari yordamida tahlil qilingan. Natijalar Samarqand viloyatida iqtisodiy faol aholining o‘zina oshishi, rasmiy sektor bandligining qisqarishi, biroq norasmiy sektor va tashqi mehnat migratsiyasi ortishini ko‘rsatdi. Ishsizlik darajasining 8,1 foizdan 6,8 foizgacha pasayishi kutilmoqda. Tadqiqotda STATA dasturi asosida prognoz ko‘rsatkichlari hisoblab chiqilgan va mehnat resurslarining samarali taqsimlanish yo‘nalishlari aniqlangan. Olingan natijalar qishloq hududlarida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish hamda mardikorlikni kamaytirish siyosatini shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Islohatlar, mehnat resurslari, resurslar harakati, aholi bandligi, ishsizlar, ish o‘rinlari, demografik jarayon, real iqtisodiyot, raqamlashtirish, migrasiya, resurslar salohiyati, iqtisodiy salohiyat, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish samaradorlik, tadqiqot konsepsiyasi, tadqiqot gipotezasi, mardikorlikka chiqish, mardikorlikka chiqmaslik, prognoz.

KIRISH

Mamlakatda amalga oshirilayotgan, barcha sohadagi, jumladan qishloq xo‘jaligidagi islohatlarning ham diqqat markazida mehnat resurslarining balansi va undan unumli foydalanish, bandlik darajasini ko‘tarish muhim masala hisoblanadi. Real iqtisodiyotning barcha sohalarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish jarayoni bir tomondan, ishlab chiqarish jarayonining unumdorligining oshirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, mehnat resurslari ish o‘rinlarining ma‘lum darajada qisqarishini keltirib chiqaradi. Bu yana aholi bandiligini qisqartirib, ishsizlar sonining tebranib turishiga olib keladi. Demak, bu jarayon nafaqat rivojlanishi orqada bo‘lgan yoxud rivojlanib kelayotgan davlatlarda, balki rivojlangan davlatlarda ham ro‘y berishi davrlar miqyosida bo‘lib turadigan ob‘ektiv hodisadir. Bu yerda, kelgusida mehnat resurslarining ish bilan band bo‘lishi va ishsizlikning kamayishi asosiy masaladir.

ASOSIY QISM

Tezida statistik usullardan keng foydalanildi. Jumladan dinamik qatorlar, jadvallar, grafik, sxema va formulalardan foydalanildi. Grafik usulda O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslari dinamikasi va uning yillar davomidagi o‘zgarishi tahlil qilindi. Sxemada, dinamik qatorlarda O‘zbekiston Respublikasida aholining

bandligi darajasi yoritildi. Shuningdek, keltirilgan formulalarda mehnat resursining qiymati va mehnat resurslarining o'rtacha yillik qiymatini aniqlash va hisoblashda foydalanilgan.

Tezis mavzusidan kelib chiqib, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishida ta'kidlanganidek, "Probit" modeli - bu ikkilik natija o'zgaruvchilarini tahlil qilish uchun statistika va ekonometrikada keng qo'llaniladigan regressiya modelining bir turi. Ikkilik natija degani, erkli o'zgaruvchi faqat ikkita mumkin bo'lgan qiymatni qabul qilishi mumkin. Ushbu modeldan foydalangan holda, mardikorlikka chiqishni kamaytirishga ta'sir qiluvchi omillarni baholash mumkin bo'ldi.

Model natijalari tahlilidan oldin tanlangan erkli o'zgaruvchilarni korrelyasion bog'liqligini o'rganish muhimdir. "Probit" modeli bo'yicha erkli o'zgaruvchilarning o'zaro korrelyasion bog'liqlik natijalaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblab, tezisd Samarqand viloyatida mehnat resurslari balansining 2030 yilgacha bo'lgan prognozini hisoblash maqsad qilib qo'yildi. Biz, talqiot ishning amalga oshirilgan, qishloq hududlarida mardikorlikka chiqishni kamaytirish omillari tahlilidagi ma'lumotlaridan va model xulosalaridan keng foydalangan holda, shuningdek, yana chiziqli Trend modelidan foydalanib, prognoz ko'rsatkichlarini hisoblashni amalga oshirdik. Trend modelining ko'rinishi quyidagi formulada keltirilgan:

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

$$\hat{Y}_t = a + b * t$$

Bu yerda:

- $\hat{Y}_t$ = t davri uchun prognoz qilingan qiymat. Bizning misolda 2025-2030 yillarda prognoz qilinadigan ko'rsatkichlar 1-jadvalda keltirilganidek „Iqtisodiy faol aholi“, „iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlar“, „iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar“, „respublikadan tashqariga chetga ishlashga ketganlar“, Iqtisodiy nafaol aholi“ „Jami mehnat resurslari“ va „O'rtacha doimiy aholi soni“ ko'rsatkichlaridir.
- a – boshlang'ich qiymat (t = 0 da)
- b – har bir davrda o'rtacha o'zgarish miqdori (trendning qiyaligi)

1-jadval

Samarqand viloyati mehnat resurslari balansining 2030 yilgacha bo'lgan davrdagi dinamik o'zgarishlari prognozi

Yillar	Iqtisodiy faol aholi	Bandlar – jami	Shu jumladan:			Ishga joylash-tirishga muhtoj shaxslar	Ishsizlik darajasi, %	Iqtisodiy nafaol aholi	Jami mehnat resurslari	O'rtacha doimiy aholi soni
			Iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlar:	Iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar:	Respublikadan tashqariga chetga ishlashga ketganlar					
2017	1629800	1523100	789659	546917	161524	131700	8,1	451100	2081000	3685700
2018	1610876	1520063	579067	662888	248108	120813	7,5	578695	2189571	4227308
2019	1604202	1455779	501365	631450	322964	148423	9,3	520663	2124865	3838449
2020	1585419	1410880	490670	678255	241955	174539	11,01	545021	2130440	3905480
2021	1599674	1441264	559366	664466	217432	158410	9,9	542586	2142260	3989511
2022	1642905	1489511	565712	648130	275669	153394	9,3	517448	2160353	4074871
2023	1610986	1504184	545794	658504	299886	106802	6,6	554337	2165323	4163369
2024	1655411	1545063	579467	663858	301738	105715	6,4	567695	2169571	4173085
2025	1634027	1507798	502675	688929	316194	126229	7,7	571245	2178479	4215363
2026	1637719	1514119	486294	698845	328980	123601	7,5	579367	2185824	4261616
2027	1641412	1520439	469914	708761	341765	120973	7,4	587490	2193170	4307870
2028	1645105	1526760	453533	718676	354551	118345	7,2	595612	2200516	4354123
2029	1648798	1533080	437152	728592	367336	115718	7,0	603735	2207862	4400377
2030	1652490	1539401	420772	738508	380122	113089	6,8	611857	2215207	4446630

2030 yilga 2017 yilga nisba tan o'zga rishi	%	101,4	101,1	53,3	135,0	235,3	85,7	X	135,6	106,4	120,6
+											
-											
-		22690	16301	-368887	191591	218568	-18611	- 1,3	160757	134207	760930

- t – vaqt davri (masalan, 1, 2, 3, 4 bizning misolda $t=8$, chunki 2017 dan 2024 gacha jami 8 yillik mavjud ma'lumot bor)

Bu dastur bo'yicha kerakli bo'lgan ma'lumotlar, bu mehnat resurslarining ko'p yillik balans ma'lumotlari asosida o'zgarish dinamika-sining turli davrlarda va sharoitlardagi holatini aks etdiruvchi ishonchli va muhim bo'lgan raqamlarda aks etdirilgan statistik jadvalni ifodalovchi ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.

Ushbu formuladan foydalangan holda STATA dasturi yordamida Samarqand viloyatida mehnat resurslari balansining 2030 yilgacha bo'lgan prognozi hisoblab chiqildi va 1-jadvalda keltirilgan natijalar olindi. Jadval ma'lumotlariga asosan, 2030 yilga borib „Iqtisodiy faol aholi“ va „Jami band bo'lganlar“ soni 2017 yilga nisbatan mos ravishda 1,4 va 1,1 % ga oshib boradi. Lekin bu davrda „iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlar“ keskin kamayib 53,3 % ga tushadi yoki son jihatdan 368887 nafarga kamayadi. Umumiy holatda jami bandlarda sezilarli o'sish bo'lmasa ham, „iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar“ va „respublikadan tashqariga chetga ishlashga ketganlar“ soni mos ravishda keskin oshib ketadi: 135,0 % va 2,3 baravarga oshadi. Respublikadan tashqari chetga ishlashga ketganlar sonining oshishi, monomarkazlarda kasbga o'quvchilar sonining ko'payishi, ya'ni chetga chiquvchilarning sertifikat egasi bo'lib, son jihatdan ham, sifat jihatdan ham ijobiy yo'naltirilganligining natijasidir. „O'rtacha doimiy aholi soni“ va „Iqtisodiy nafaol aholi“ sonining parallel o'sishi (mos ravishda 35,6 va 20,6 % ga) ob'ektiv hodisadir.

XULOSA

Ana shu ijobiy natijalar hisobiga 2030 yilgacha (14 yil mobaynida ham) ishga joylashtirishga muxtojlar soni 14,3 % ga pasayadi yoki 18611 kishiga kamayadi. Pirovard natijada, ishsizlik darajasi pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, minimallasadi va 8,1 % dan 6,8 % ga pasayadi, ya'ni bu – 1,3 punktini tashkil qiladi. Yoki yuqorida ta'kidlanganidek, bu raqam 18611 kishini tashkil qiladi. Shu davr ichida iqtisodiyotning rasmiy sektorida va norasmiy sektorida bandlar soni mos ravishda – 502675 dan 420772 nafargacha kamaygan (16,3 %) va 688928 nafardan 738508 nafargacha ko'paygan (7,2 %). Umumiy holatda – 1507798 nafardan 1539401 nafargacha yoki 31603 nafarga (2,1%) ko'paygan. Ana shu o'zgarishni shu yilgi o'rtacha minimal ish haqi bo'yicha hisoblaganda (1 271 000 ming so'm) ishga joylashgan 31603 nafar mehnat resurslarining olishi mumkin bo'lgan minimal daromadi – 40 mlrd. 167 mln. 413 ming so'mga etishi mumkin ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zR Prezidentining 2025 yil 17 yanvar, PQ-12-sonli qarori ma'lumotlari
2. O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami (Toshkent, 2024). 2005-2023 yillar ma'lumotlari
3. Samarqand viloyatidagi norasmiy ish bilan band va ishsiz aholi qatlamidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma materiallari.
4. Ibragimov Gayrat, Murtazaev Olim, Rakhmonov Davlat. Klaster tizimining qishloq xo'jaligi samaradorligiga ta'siri//Agroiqtisodiyot. –Toshkent, 2020. -№1. -20-23 b.

5. Murtazaev Olim, Ibragimov Gayrat Ablaqulovich The Effectiveness of Economic Relationships and Forecasting between Farms and Agricultural Services//The Indian Journal of Economics (ISSN: 0019-5170) Issue 400. Pages

